

Proceedings of the MMIT'25 International Conference



MMIT'25

International Conference
29 May 2025, Tashkent,
Uzbekistan www.mmit.tiue.uz



Tashkent International University of Education
Turin Polytechnic University in Tashkent

PROCEEDINGS

of the MMIT'25 International Conference

TA'LIMNING ZAMONAVIY USULLARI VA
INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR

MODERN METHODS AND INNOVATION
TECHNOLOGIES IN EDUCATION

СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ И
ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ
В ОБРАЗОВАНИИ

29 May 2025, Tashkent, Uzbekistan

MAQOLALAR TO'PLAMI
СБОРНИК СТАТЕЙ



Tashkent International University of Education

PROCEEDINGS

of the MMIT'25 International Conference

Ta'limning zamonaviy usullari va innovatsion texnologiyalar

Modern methods and innovation technologies in education

**Современные методы и инновационные технологии в
образовании**

29 May 2025, Tashkent, Uzbekistan www.mmit.tiue.uz

MAQOLALAR TO'PLAMI

СБОРНИК СТАТЕЙ

Tashkent 2025

UO'K: 370.1

KBK: 74.00

T 17

Ta'limning zamonaviy usullari va innovatsion texnologiyalar: Xalqaro konferentsiya to'plami / To'plovchi va nashrga tayyorlovchi: M.I.Baydjanov, R.R.Bekbayev. – Toshkent: Bookmany print, 2025. – 350 b.

Mazkur to'plam "Ta'limning zamonaviy usullari va innovatsion texnologiyalari" xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiyasini o'tkazish to'g'risida "Tashkent International University of Education" xalqaro universitetining 2025 yil 25 martdagi 01-03-05/4AF-son buyrug'iga asosan o'tkazilgan anjuman materiallari asosida tayyorlandi.

To'plovchi va nashrga tayyorlovchi:

TIUE akademik ishlar bo'yicha prorektori, f.-m.f.n., dotsent

Baydjanov Maqsudbek Islamdjanovich

TIUE Ta'lim boshqaruvi va pedagogika kafedrasi mudiri, f.f.d. (DSc), dotsent

Bekbayev Rauf Rustamovich

Bosh muharrir:

TIUE akademik ishlar bo'yicha prorektori, f.-m.f.n., dotsent

Baydjanov Maqsudbek Islamdjanovich

Mas'ul muharrir:

TIUE Ta'lim boshqaruvi va pedagogika kafedrasi mudiri, f.f.d. (DSc), dotsent

Bekbayev Rauf Rustamovich

Taqrizchilar:

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Falsafa kafedrasi professori, f.f.n.

Karimov Rahmat Rahmonovich

TIUE Ta'lim boshqaruvi va pedagogika kafedrasi professori, f.f.d. (DSc)

Saidova Kamola Uskanbayevna

TIUE Axborot texnologiyalari va matematika kafedrasi dotsenti, f.-m.f.n.

Chay Zoya Sergeyevna

Ushbu to'plam "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti Ilmiy-texnik kengashining 2025 yil 15 iyuldagi 6-sonli majlis qarori asosida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-06-139-4

Project Yostate: creating a stylish online clothing store	316
Ta'limda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va sun'iy intellekt: istiqbollar va amaliy yechimlar.....	321
Modern information and communication technologies in education and artificial intelligence: prospects and practical solutions.....	321
Применение метода множителей Лагранжа при нахождении условного экстремума функции двух переменных	324
Application of the Lagrange multiplier method in finding the conditional extremum of a function of two variables	324
Современные информационно-коммуникационные технологии в образовании, адаптация персонала к информатизации образовательного процесса	328
Modern information and communication technologies in education, staff adaptation to informatization of the educational process	328
Zamonaviy ta'lim, pedagogika va steam: integrativ yondashuvlarning ilmiy-asosiy tahlili	333
Scientific and basic analysis of modern education, pedagogy and steam: integrative approaches	333
Adabiyotlar ro'yxati.....	335
Tolali optik aloqa tizimlarini tadqiq qilishda qo'llaniladigan paket dasturlar tahlili	336
Analysis of package programs used in the study of fiber optic communication systems	336
GeoUtr dasturida optik kirish tarmoqlari abonentlariga xizmatlar ko'rsatish.....	340
Provision of services to subscribers of optical access networks in the GeoUtr program	340
Globalashuv sharoitida yoshlarda g'oyaviy immunitetni shakllantirishning pedagogik asoslari	345
Pedagogical foundations of the formation of ideological immunity in young people in the context of globalization.....	345
Ta'lim muassasalarini boshqarishda ustozlikning roli	349
The role of mentorship in the management of educational institutions	349
O'zbekiston Respublikami moliya tizimining rivojlanish tendensiyalarining tahlili.....	354
Analysis of trends in the development of the financial system of the Republic of Uzbekistan	354

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKAMI MOLIYA TIZIMINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARINING TAHLILI

Alimov Abror Batirovich

Tashkent International University of Education

E-mail: a.alimov@tiue.uz

DOI: 10.61587/mmit.tiue.uz.v1i1.230

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi moliya tizimida so‘nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlar, mavjud muammolar va rivojlanish tendensiyalari tahlil qilingan. Ilmiy tadqiqot natijalari asosida moliya bozorini yanada rivojlantirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: moliya tizimi, bank islohotlari, investitsiya muhiti, byudjet siyosatlari, moliyaviy barqarorlik..

ANALYSIS OF TRENDS IN THE DEVELOPMENT OF THE FINANCIAL SYSTEM OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Alimov Abror Batirovich

Tashkent International University of Education

E-mail: a.alimov@tiue.uz

Abstract. This article analyzes the reforms implemented in the financial system of the Republic of Uzbekistan in recent years, existing problems, and development trends. Based on the results of scientific research, proposals and recommendations for the further development of the financial market are presented.

Keywords: financial system, banking reforms, investment climate, budget policy, financial stability.

Kirish

Moliya tizimi mamlakat iqtisodiyotining asosiy ustunlaridan biri bo‘lib, uning samarali faoliyati iqtisodiy barqarorlik, investitsion jozibadorlik va ijtimoiy rivojlanish uchun zarur poydevor hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasida 2017 yildan boshlab amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli iqtisodiy islohotlar doirasida moliya tizimini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Ushbu maqolada mamlakat moliya tizimida kuzatilayotgan asosiy tendensiyalar, muvaffaqiyatlar va muammolar tahlil qilinadi.

Adabiyotlar sharhi va metodologiya

Ushbu tadqiqotning nazariy va amaliy asoslarini tahlil etish jarayonida O‘zbekiston Respublikasi hamda xalqaro moliya institutlarining so‘nggi yillardagi rasmiy hujjatlari, hisobotlari va tahliliy manbalari o‘rganildi. Adabiyotlar tahlili moliya tizimini modernizatsiya qilish, davlat banklarini isloh etish va moliyaviy barqarorlikni ta‘minlashga qaratilgan strategik hujjatlar hamda xalqaro baholashlar asosida olib borildi.

Birinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 17-yanvardagi PQ–42-son qarori mamlakat moliya tizimini modernizatsiya qilish, davlat banklarini isloh etish va ularni bosqichma-bosqich xususiylashtirishning asosiy yo‘nalishlarini belgilab berdi [1]. Mazkur qaror moliya sohasidagi islohotlarning institutsional asosini yaratib, tadqiqotning huquqiy-me‘yoriy poydevorini tashkil etadi.

Ikkinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2022–2024-yillardagi rasmiy hisobotlari moliya sektori faoliyatining holatini, inflyatsiya darajasi va moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlarini tahlil qilish imkonini berdi [2]. Ushbu ma‘lumotlar moliya tizimining ichki dinamikasini, pul-kredit siyosatining samaradorligini hamda bank sektoridagi o‘zgarishlarni empirik asosda baholash uchun manba bo‘lib xizmat qildi.

Uchinchidan, Jahon bankining “Uzbekistan Economic Update” (2023) hisobotida mamlakat iqtisodiyotida kechayotgan makroiqtisodiy tendensiyalar, xususan moliya bozori rivojlanishining xalqaro kontekstdagi bahosi yoritilgan. Shuningdek, Osiyo taraqqiyot bankining “Uzbekistan: Financial Sector Assessment” (2022) tahliliy hisobotida xususiy sektor ishtiroki, moliyaviy inklyuziya va bank xizmatlarining kengayishi masalalari yoritilgan bo‘lib, bu ma‘lumotlar tadqiqotning analitik asosini mustahkamladi.

To‘rtinchidan, OECD tomonidan tayyorlangan “Enhancing Financial Literacy in Central Asia” (2023) hisobotida O‘zbekiston va Markaziy Osiyo mamlakatlarida moliyaviy savodxonlikni oshirish bo‘yicha xalqaro tavsiyalar keltirilgan. Bu manba moliya tizimining ijtimoiy-psixologik omillarini va aholining moliyaviy madaniyatini o‘rganishda metodik ahamiyatga ega.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi (2024-yilgi tahrir) hamda Moliya vazirligining 2020–2023-yillardagi “Byudjet ijrosi bo‘yicha yillik hisobotlari” soliq siyosatining huquqiy asoslarini, fiskal barqarorlikni ta‘minlash mexanizmlarini hamda davlat byudjeti tushumlari va xarajatlari dinamikasini tahlil qilish imkonini berdi.

World Economic Forum’ning “Global Competitiveness Report” (2023) hisobotidagi ma‘lumotlar esa O‘zbekiston moliya tizimining xalqaro raqobatbardoshligini aniqlash va iqtisodiy modernizatsiya jarayonlarida islohotlarning ta‘sirini baholash uchun qo‘llanildi.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi davlat moliya tizimini tendensiyalarini tahlil qilish va ahamiyatini oshirish usullarini o‘rganish hamda samarador natijaga erishishga yordam beruvchi amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot davomida guruhlash, tasniflash, mavhumlashtirish, rasmiylashtirish, analogiya va modellash usullaridan foydalanilgan.

Natijalar va muhokama

Ushbu tadqiqot doirasida O‘zbekiston Respublikasining moliya tizimi, xususan bank sektori, kapital bozori, soliq tizimi va moliyaviy inklyuziya sohalaridagi o‘zgarishlar chuqur tahlil qilindi. Olingan natijalar mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar moliya tizimining barqarorligi va samaradorligiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatayotganini ko‘rsatadi. 2017–2024 yillar davomida bank tizimida keskin o‘shish kuzatildi. Bank aktivlari hajmi 190 trln so‘mdan 620 trln so‘mgacha oshdi, ya‘ni 3,2 barobarga o‘sdı. Bu o‘shish nafaqat iqtisodiy faollikning kuchayganini, balki bank tizimidagi institutsional islohotlarning amaliy samara berganini ko‘rsatadi. Banklar faoliyatida davlat ishtirokining qisqarishi va xususiy kapital ulushining ortishi raqobat muhitini yaxshiladi. Shu bilan birga, bank aktivlarining o‘shishi kredit portfeli kengayishi va investitsiya faoliyati kuchayishi bilan bog‘liq bo‘lib, bu holat iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantirishda moliya sektori yetakchi rol o‘ynayotganini anglatadi. Biroq o‘shish bilan birga aktivlar sifati masalasi ham dolzarb bo‘lib qolmoqda. Banklarning qiyinlik bilan qaytariladigan kreditlar (NPL) ulushini nazorat qilish, kredit risklarini minimallashtirish va korporativ boshqaruvni kuchaytirish kelgusidagi asosiy vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda [3].

Tahlil natijalariga ko‘ra, 2017 yilda xususiy banklar ulushi jami aktivlarda 15% bo‘lgan bo‘lsa, 2024 yilga kelib bu ko‘rsatkich 28% ga yetdi. Bu tendensiya bank sohasida bozor mexanizmlari faoliyat yuritishini ta‘minlash va davlat ishtirokini kamaytirish siyosatining samaradorligini ko‘rsatadi. Xususiy banklar faoliyatining kengayishi bank xizmatlarining diversifikatsiyasini ta‘minlab, aholi va biznes uchun yangi mahsulotlar taklifini oshirdi. Shu bilan birga, raqobatning kuchayishi xizmat sifati, raqamli bank mahsulotlarini joriy etish va foydalanuvchi tajribasini yaxshilashga turtki berdi. Xususiy banklar faoliyatini yanada rivojlantirish uchun normativ muhitni soddalashtirish, xalqaro standartlar asosida korporativ boshqaruv tizimini kuchaytirish va banklar kapitalini diversifikatsiya qilish zarurligi ta‘kidlanadi.

Kapital bozorida so‘nggi yillarda ijobiy tendensiyalar kuzatildi. 2023 yilda amalga oshirilgan bitimlar hajmi 12,1 trln so‘mni tashkil etib, 2021 yilga nisbatan 40% o‘shish qayd etildi. Bu ko‘rsatkich iqtisodiy sub’ektlarning moliyaviy instrumentlardan foydalanishga bo‘lgan qiziqishining oshganini va bozordagi ishonch muhitining yaxshilanganini ifodalaydi. Shu bilan birga, bozor hali yetarlicha chuqur va likvid emas, bu holat kapital bozorining institutsional bazasi

— fond birjalari, brokerlik kompaniyalari, mustaqil reyting agentliklari va investitsiya jamg'armalarini rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, kapital bozori faoliyatini kengaytirish uchun xo'jalik sub'ektlarini IPO va obligatsiya chiqarishga jalb qilish, institutsional investorlar ulushini oshirish hamda xalqaro investitsiya standartlarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Soliq tizimida amalga oshirilgan islohotlar natijasida 2022–2023 yillarda davlat byudjeti tushumlari 18% ga oshdi. Bu natija soliq ma'muriyatida raqamli nazorat tizimlarini joriy etish, soliq to'lovchilar ma'lumotlarini avtomatlashtirish va "raqamli hisobot" tizimining keng qo'llanishi bilan bog'liq. Bu o'zgarishlar fiskal barqarorlikni ta'minlashda muhim omil bo'ldi. Soliq to'planishining samaradorligi oshishi davlat xarajatlarini maqsadli moliyalashtirish imkoniyatini kengaytirdi. Biroq ayrim sektorlarda yashirin iqtisodiyot ulushi hali ham yuqori bo'lib, bu soliq tushumlarining barqarorligini ta'minlashda to'siq bo'lib turibdi.

1-jadval. O'zbekiston Respublikasi moliya tizimining asosiy ko'rsatkichlari (2020–2024)

Ko'rsatkichlar	2020	2021	2022	2023	2024
Bank aktivlari (trln so'm)	330	400	475	550	620
Kapital bozori hajmi (trln so'm)	6.1	7.9	9.4	12.1	13.8*
Byudjet tushumlari o'sishi (%)	9.5%	10.3%	12.8%	14.7%	18.1%
Moliyaviy inklyuziya (%)	58%	62%	67%	70%	72%

2021–2024 yillar oralig'ida aholining bank xizmatlaridan foydalanish darajasi 58% dan 72% ga yetdi. Bu aholining moliyaviy savodxonligi oshganini va bank xizmatlariga kirish imkoniyatlari kengayganini ko'rsatadi. Raqamli to'lov tizimlari, mobil bank xizmatlari va onlayn kredit platformalarining rivojlanishi bu jarayonga katta ta'sir ko'rsatdi. Ayniqsa, qishloq hududlarida moliyaviy inklyuziya darajasining o'sishi davlat tomonidan amalga oshirilayotgan raqamli infratuzilmani kengaytirish siyosati bilan bevosita bog'liq. Shu bilan birga, moliyaviy savodxonlikni oshirish bo'yicha davlat va xalqaro tashkilotlar (OECD, Jahon banki) hamkorligidagi dasturlar aholida moliyaviy madaniyatni shakllantirishga xizmat qilmoqda. Bu esa kelgusida moliya bozorida barqarorlik va ishonchni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston moliya tizimi so'nggi yillarda barqaror o'sish traektoriyasiga kirdi. Bank sektorida raqobat muhiti shakllandi, kapital bozori rivojlanish bosqichiga o'tdi, soliq islohotlari fiskal barqarorlikni ta'minladi, moliyaviy inklyuziya esa aholining iqtisodiy faolligini oshirdi. Shu bilan birga, tizimni yanada takomillashtirish uchun moliya bozori chuqurligini oshirish, xususiy sektor ishtirokini kengaytirish va moliyaviy savodxonlikni strategik yo'nalish sifatida rivojlantirish zarur.

Xulosa

Tadqiqot natijalari O'zbekiston moliya tizimining so'nggi yillarda izchil rivojlanib, barqaror o'sish bosqichiga kirganini ko'rsatadi. Bank sektorida aktivlar hajmi uch baravardan ziyod oshib, xususiy banklar ulushi 28 foizga yetdi, bu esa raqobat va xizmat sifati oshishiga olib keldi. Kapital bozorida bitimlar hajmi 40 foizga ko'payib, iqtisodiy subyektlarning moliyaviy vositalardan foydalanish faolligi ortdi. Shu bilan birga, bozor infratuzilmasini yanada rivojlantirish va likvidlikni oshirish zarur. Soliq tizimida raqamli islohotlar natijasida byudjet tushumlari 18 foizga oshib, fiskal barqarorlik mustahkamlandi. Aholining bank xizmatlaridan foydalanish darajasi 58 foizdan 72 foizga yetib, moliyaviy inklyuziya sezilarli oshdi. Umuman olganda, O'zbekiston moliya tizimi iqtisodiy modernizatsiya jarayonlarining tayanchiga aylanib, barqaror o'sish, xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash va moliyaviy savodxonlikni oshirish yo'nalishida rivojlanmoqda.

Adaviyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 2023 yil 17 yanvar, PQ–42-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy hisobotlari (2022–2024 yillar).
3. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi — “Byudjet ijrosi bo'yicha yillik hisobotlar”, 2020-2023.

TA'LIMNING ZAMONAVIY USULLARI VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR

Xalqaro konferensiya materiallari to'plami

**Mazkur to'plamga kiritilgan materiallarning mazmuni, undagi statistik ma'lumotlar va me'yoriy
hujjatlar sanasining to'g'riligiga hamda tanqidiy fikr-mulohazalarga mualliflarning o'zlari
ma'suldirlar.**

“Bookmany print” nashriyoti

Nashriyot tasdiqnoma raqami № 022246. 28.02.2022-y.

Bosishga ruxsat etildi: 03.10.2025.

“Times New Roman” garniturası. Qog'oz bichimi: 60x84 1/8

Nashriyot bosma tabog'i 25,5. Shartli bosma taboq 41,2.

Adadi 50 nusxa. ofset bosma usulida bosildi.

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.

“BOOKMANY PRINT” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.

E-mail: bookmany_print@mail.ru
t.me/ Bookmanyprint +998 99 180 97 10



MMIT'25



TASHKENT INTERNATIONAL
UNIVERSITY OF EDUCATION

TURIN POLYTECHNIC
UNIVERSITY IN TASHKENT



An abstract graphic featuring a complex network of interconnected nodes and lines, resembling a molecular structure or a digital network, set against a dark blue background. The nodes are represented by circles of varying sizes, and the lines are thin, light blue, creating a web-like pattern that fills the upper two-thirds of the page.

**Tashkent International University of Education
Turin Polytechnic University in Tashkent
29 May 2025, Tashkent, Uzbekistan www.mmit.tiue.uz**